

**TARIX FANI O'QITUVCHILARINING METODIK
KOMPETENTLIGINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH
TIZIMI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY
ASOSLAR, XORIJIY TAJRIBA VA AMALIY TAHLIL**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТ-
НОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМЫ
НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ: ТЕ-
ОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИ-
ЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.**

**IMPROVING THE METHODOLOGICAL COMPETENCE OF HISTORY
TEACHERS THROUGH A SYSTEM OF CONTINUOUS
PROFESSIONAL DEVELOPMENT: THEORETICAL
FOUNDATIONS, FOREIGN EXPERIENCE, AND PRACTICAL
ANALYSIS.**

MURODILLAYEV SARDORBЕК RUSTAMJON O'G'LI
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari va xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Hududiy empirik tadqiqotlar asosida sohadagi raqamli va integratsiyalashgan ta'lim muammolari aniqlangan. Singapur, Finlyandiya va Germaniya tajribasi qiyoslanib, o'qituvchilar malakasini oshirishning integratsiyalashgan modeli hamda portfolio va video-tahlilga asoslangan zamonaviy baholash tizimi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: metodik kompetentlik, uzluksiz kasbiy rivojlanish, tarix ta'limi, integratsiyalashgan yondashuv, didaktik kompetensiya, malaka oshirish tizimi, fanlararo integratsiya, baholash mexanizmlari.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и зарубежный опыт развития методической компетентности школьных учителей истории. На основе регионально-го эмпирического исследования выявлены проблемы в сфере цифрового и интегрированного обучения. Сопоставив опыт Сингапура, Финляндии и Германии, автор предлагает интегрированную модель повышения квалификации учителей, а также современную систему оценивания на основе портфолио и видеоанализа.

Ключевые слова: методическая компетентность, непрерывное профессиональное развитие, историческое образование, интегрированный подход, дидактическая компетентность, система повышения квалификации, межпредметная интеграция, механизмы оценивания.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and foreign experience of developing school history teachers' methodical competence. Based on regional empirical studies, contemporary challenges in digital and integrated learning were identified. Comparing the practices of Singapore, Finland, and Germany, the author proposes an integrated model for professional development alongside a modern assessment system based on portfolios and video analysis.

Keywords: methodical competence, continuous professional development, history education, integrated approach, didactic competence, professional development system, interdisciplinary integration, assessment mechanisms.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida sifatni ta'minlash va uni doimiy ravishda rivojlantirib borish masalasi pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, tarix fani o'qituvchilari zimmasiga yuklatilgan vazifa – o'quvchilarda tarixiy ong, milliy o'zlikni anglash, tanqidiy fikrlash va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish – ularning metodik tayyorgarligi va kasbiy mahoratining yuqori darajada bo'lishini talab etadi. Shu bois, tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi asosida takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yilda qabul qilingan PQ-231-son hamda VMQ-867-son qarorlar asosida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining yangi vertikal tizimi joriy etildi. Ushbu tizim "maktab – hududiy malaka oshirish markazi – respublika darajasidagi o'quv muassasalari" tamoyiliga asoslanib, o'qituvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning metodik va kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz, amaliyotga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuv asosida tashkil etiladi. Singapur, Finlyandiya va Germaniya kabi mamlakatlarda tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda "lesson study", individual rivojlanish rejalari, amaliy tadqiqotga asoslangan o'qitish va raqamli pedagogik vositalardan keng

foydalaniladi. Bu tajribalar o'qituvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy-metodik ko'nikmalarini ham izchil rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlarda o'rganilgan. Jumladan, metodik tayyorgarlikning integratsiyalashgan modeli, didaktik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari alohida tadqiqot yo'nalishlari sifatida shakllangan. Biroq, uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi bilan metodik kompetentlikni o'zaro bog'liq holda kompleks o'rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Amaliy kuzatuvlar esa tarix fani o'qituvchilari faoliyatida bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, nazariy bilimlar bilan amaliy metodik ko'nikmalar o'rtasidagi nomutanosiblik, fanlararo integratsiyaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, raqamli pedagogik kompetensiyaning past darajasi hamda baholash tizimlarining zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi asosida takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muammo bir necha asosiy yo'nalishda – kasbiy kompetentlik nazariyasi, metodik tayyorgarlik, uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va innovatsion ta'lim texnologiyalarini integratsiya qilish doirasida yoritilgan.

Yarmatov R.B. tomonidan olib borilgan

tadqiqotda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi chuqur tahlil qilinib, unda metodik kompetentlikni shakllantirishda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va amaliy ko'nikmalar uyg'unligi muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Muallifning fikricha, tarix o'qituvchisi faqat bilim beruvchi emas, balki tadqiqotchi va innovator sifatida ham shakllanishi lozim [3, 52-b].

Abduraimov I.R. esa tarix o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslab beradi. Unga ko'ra, metodik kompetentlik turli fanlararo bilimlar, pedagogik tajriba va innovatsion texnologiyalarni bir tizimda uyg'unlashtirish orqali rivojlanadi [4, 150–151-b]. Ushbu yondashuv o'qituvchining kasbiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Xujanova L.R. o'z tadqiqotlarida didaktik kompetensiyani rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, interfaol o'qitish metodlari va o'quv jarayonini loyihalash kompetensiyalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, metodik kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyatidir [10, 208-b].

G'anijonova D. globalizatsiya sharoitida tarix fanini o'qitish muammolarini tahlil qilib, tarixiy savodxonlikni oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligini asoslab beradi. U o'qituvchining metodik kompetensiyasi zamonaviy ta'lim talablariga moslashishi kerakligini ta'kidlaydi [5, 634-b].

Maxmudov Sh.I. esa bo'lajak tarix o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning rolini yoritib, raqamli ta'lim muhitining metodik tayyorgarlikdagi

ahamiyatini asoslab beradi [6, 2–3-b].

Sharapatova A. tarix o'qitish metodikasining asosiy prinsiplari – ilmiylik, tizimlilik, izchillik, faollik va integratsiya – metodik kompetentlikni shakllantirishning nazariy asosini tashkil etishini ta'kidlaydi [8, 1540-b]. Bu prinsiplar o'qituvchining kasbiy faoliyatida metodik yondashuvni belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

Ibragimova M. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda interfaol metodlarning tarix ta'limidagi o'rni tahlil qilinib, ularning o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan [12, 47-b]. Bu esa bevosita o'qituvchining metodik kompetentligiga bog'liqdir.

Shuningdek, UNESCO tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda O'zbekiston o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi tahlil qilinib, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan [15, 18–19-b]. Bu holat zamonaviy metodik kompetentlik tarkibida raqamli pedagogikaning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi, integratsiyalashgan yondashuv, raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar uyg'unligi asosiy omil sifatida qaraladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi asosida takomillashtirish muammosi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg'unlashtirildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar

tahlili, qiyosiy-pedagogik tahlil, tizimli va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu jarayonda metodik kompetentlik, uzluksiz kasbiy rivojlanish hamda tarix ta'limidagi innovatsion yondashuvlarga oid ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Empirik bosqichda esa pedagogik kuzatuv va ekspert baholash usullari qo'llanildi. Shuningdek, Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan tarix fani o'qituvchilari ishtirokida so'rovnoma o'tkazilib, ularning metodik tayyorgarlik darajasi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida umumlashtirilib, tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali takomillashtirish masalasi murakkab, ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Nazariy tahlil, empirik kuzatuv va so'rovnoma natijalari asosida bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Avvalo, tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligi tarkibiy jihatdan ko'p komponentli tuzilma ekanligi tasdiqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, metodik kompetentlik gnostik (bilimga oid), loyihaviy-konstruktiv (darsni rejalashtirish), kommunikativ (muloqot), tashkiliy-boshqaruv, reflektiv-baholash, raqamli-texnologik hamda tadqiqotchi-innovatsion komponentlarning o'zaro uyg'unligidan iborat ekani aniqlandi. Ushbu komponentlar o'qituvchining kasbiy faoliyatida bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi va ularning har biri metodik kompetentlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'rovnoma natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tarix o'qituvchilarining aksariyati metodik tayyorgarlikda nazariya va amaliyot o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini qayd etgan. Jumladan, ishtirokchilarning 58 foizi malaka oshirish kurslarida nazariy bilimlar ustuvor ekanini, amaliy metodik ko'nikmalarni shakllantirishga esa yetarli e'tibor qaratilmayotganini bildirgan. Bu holat o'qituvchilarning real dars jarayonida metodik yechimlarni mustaqil ishlab chiqish imkoniyatini cheklab qo'yayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, fanlararo integratsiya darajasining pastligi ham muhim natija sifatida qayd etildi. So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchilarning 62 foizi tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash bo'yicha yetarli metodik bilim va ko'nikmalarga ega emasligini ta'kidlagan. Bu esa o'qituvchilarda tarixiy hodisalarni kompleks va tizimli tushunish kompetensiyasining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Raqamli pedagogik kompetensiya bo'yicha olingan natijalar ham dolzarb muammolar mavjudligini ko'rsatdi. O'qituvchilarning atigi 27 foizi dars jarayonida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan muntazam foydalanishini bildirgan. Bu holat zamonaviy ta'lim talablariga moslashish jarayoni hali yetarli darajada shakllanmaganini anglatadi. Shu bilan birga, bu yo'nalishda malaka oshirish va amaliy treninglarga ehtiyoj yuqori ekanligi aniqlandi.

Baholash tizimi bo'yicha natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning 54 foizi mavjud baholash mexanizmlari ularning metodik kompetentligini obyektiv va to'liq aks ettirmasligini bildirgan. Bu esa an'anaviy test va nazorat shakllaridan tashqari, portfolio, dars tahlili va amaliy loyihalar asosidagi baholash tizimlarini joriy etish zarurligini

ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnoma va empirik kuzatuv natijalari tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligida bir qator muhim muammolar

mavjudligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar asosida asosiy muammoli yo'nalishlar tizimlashtirildi va quyidagi jadvalda umumlashtirildi (1-Jadval).

| № | Yo'nalish | Asosiy muammo | Ko'rsatkich (%) | Izoh |
|---|------------------------------------|--|-----------------|---|
| 1 | Nazariya va amaliyot uyg'unligi | Amaliy metodik ko'nikmalar yetarli emas | 58% | Nazariy bilim ustuvorligi saqlanib qolgan |
| 2 | Fanlararo integratsiya | Boshqa fanlar bilan bog'lash zaif | 62% | Integratsion metodik yondashuv yetarli emas |
| 3 | Raqamli kompetensiya | Darsda AKTdan foydalanish past | 27% | Multimedia va raqamli vositalar kam qo'llaniladi |
| 4 | Baholash tizimi | Metodik kompetentlikni obyektiv baholamaslik | 54% | Portfolio va amaliy baholash yetarli emas |
| 5 | Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi | Yangi tizim to'liq shakllanmagan | — | Ijobiy tendensiyalar mavjud, lekin adaptatsiya jarayoni davom etmoqda |

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori muammo fanlararo integratsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi (62%) va nazariya hamda amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik (58%) bilan bog'liqdir. Bu holat tarix o'qituvchilarining metodik

tayyorgarligida amaliy yo'naltirilgan yondashuv yetishmayotganini anglatadi.

Shuningdek, raqamli pedagogik kompetensiyaning past darajasi (27%) zamonaviy ta'lim talablariga moslashishda jiddiy bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi.

Baholash tizimining yetarlicha obyektiv emasligi (54%) esa o'qituvchilarning real metodik salohiyatini to'liq baholash imkonini cheklaydi.

Natijalar tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda integratsiyalashgan, amaliy va raqamli yondashuvga asoslangan tizimni kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar yangi joriy etilgan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi (PQ-231 va VMQ-867 asosida) o'qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratganini ko'rsatdi. Xususan, tizimning uch bosqichli tuzilmasi – maktab ichidagi metodik soatlar, hududiy seminarlar va malaka oshirish kurslari – o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini bosqichma-bosqich ta'minlash imkonini bermoqda.

Biroq, tizimning amaliy samaradorligi hali to'liq shakllanmaganligi ham aniqlangan. Bu holat tizimning yangi joriy etilganligi, metodik infratuzilmaning bosqichma-bosqich moslashuvi hamda pedagoglarning yangi yondashuvlarga adaptatsiya jarayoni bilan izohlanadi. Shunga qaramay, masofaviy ta'lim platformalarining joriy etilishi, variativ modullar tizimi va metodik amaliyotga ajratilgan soatlar miqdorining oshirilishi ijobiy tendensiyalar sifatida qayd etildi.

Xorijiy tajribabilan qiyosiy tahlil natijalari Singapur va Finlyandiya ta'lim tizimlarida o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda individual yondashuv, refleksiv tahlil va amaliy tadqiqotga asoslangan model samarali ishlayotganini ko'rsatdi. Ushbu mamlakatlarda "Lesson Study" va individual rivojlanish rejalarini o'qituvchining kasbiy o'sishida muhim vosita sifatida qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini

rivojlantirishda tizimli, integratsiyalashgan va raqamli yondashuvga asoslangan modelni joriy etish zarurligini tasdiqladi. Bu esa uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimining samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi asosida takomillashtirish jarayoni murakkab va tizimli yondashuvni talab etadi. Olingan empirik va nazariy natijalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar o'qituvchining kasbiy rivojlanishida amaliy yo'naltirilgan, integratsiyalashgan va innovatsion yondashuvlarning ustuvorligini tasdiqlaydi.

Malaka oshirish dasturlarida "Metodik amaliyot" ulushini oshirish zarurati alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvini ta'minlab, o'qituvchining real pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi. Sharapatova A. ta'kidlaganidek, tarix o'qitish metodikasining ilmiylik, tizimlilik, faollik, mustaqillik va integratsiya kabi prinsiplari o'qituvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi [8]. Shu nuqtai nazardan, amaliy mashg'ulotlarning ko'paytirilishi o'qituvchining metodik refleksiyasini kuchaytiradi va kasbiy mahoratini oshiradi.

Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Abduraimov I.R. tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv turli fanlardan olingan bilim, ko'nikma va tajribalarni bir tizimda uyg'unlashtirishni nazarda tutadi [4]. Bu

esa o'qituvchining fanlararo bog'liqliklarni chuqur anglashiga, tarixiy jarayonlarni keng kontekstda tahlil qilishiga hamda o'quv jarayonini yanada mazmunli tashkil etishiga imkon yaratadi. Natijada, o'quvchilarda ham tizimli va kompleks fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish masalasi ham muhokamada muhim o'rin egallaydi. Ibragimova M. fikricha, interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi [12]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va interfaol yondashuvlarning integratsiyasi o'qituvchining metodik innovatsion salohiyatini oshiradi hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqadi. Bu esa o'qituvchining transformatsion rolini kuchaytiradi.

Baholash tizimini takomillashtirish ham muhim muhokama yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi baholash mexanizmlarining yetarli darajada obyektiv emasligi o'qituvchilarning real metodik kompetentligini to'liq aks ettirish imkonini cheklaydi. Shu sababli, UNESCO tomonidan tavsiya etilgan raqamli kompetensiyalarni baholash mezonlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarurati mavjud [15]. Portfolio baholash, dars jarayonini video-tahlil qilish va metodik loyihalarni ekspertiza asosida baholash kabi yondashuvlar o'qituvchining kasbiy faoliyatini yanada aniq va kompleks baholash imkonini beradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, tarix o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayoni faqat malaka oshirish tizimi doirasida emas, balki uzluksiz kasbiy rivojlanishning barcha bosqichlarini qamrab olgan yaxlit tizim

sifatida qaralishi lozim. Bunda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, integratsiyalashgan metodika, raqamli pedagogika va zamonaviy baholash mexanizmlarining uyg'unligi asosiy strategik yo'nalish sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi asosida takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo ekanligini tasdiqladi. O'rganilgan nazariy manbalar, xorijiy tajribalar va empirik tahlillar asosida metodik kompetentlikning ko'p komponentli tuzilma ekanligi aniqlanib, uning samarali rivojlanishi integratsiyalashgan, amaliy yo'naltirilgan va raqamli yondashuvlar uyg'unligiga bog'liqligi asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mavjud tizimda nazariya va amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik, fanlararo integratsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli pedagogik kompetensiyaning pastligi hamda baholash mexanizmlarining takomillashtirmaganligi tarix o'qituvchilarining metodik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, yangi joriy etilgan uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi pedagoglarning kasbiy o'sishi uchun muhim institutsional asos yaratib bermoqda. Xorijiy tajribalar (Singapur, Finlyandiya va boshqa ta'lim tizimlari) tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda individual yondashuv, "Lesson Study" amaliyoti, reflektiv tahlil va doimiy monitoring tizimi yuqori samaradorlikka ega. Ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot yakunida tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi yo'nalishlar ilmiy asoslangan xulosa sifatida ilgari surildi: metodik amaliyot ulushini oshirish,

integratsiyalashgan yondashuvni keng joriy etish, raqamli pedagogik kompetensiyani rivojlantirish va zamonaviy, ko'p mezonli baholash tizimini shakllantirish. Tarix fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi orqali

rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik talablarga javob beradigan o'qituvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi VMQ-867-son "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2024.
3. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Namangan: NamDPI, 2024. – 186 b.
4. Abduraimov I.R. Continuous Professional Methodology Improvement of History Teachers Based on an Integrated Approach // International Journal of Pedagogics. – 2025. – Vol. 5, Issue 04. – P. 150–153. DOI: 10.37547/ijp/Volume05Issue04-40.
5. G'anijonova D. Essential issues of history teaching in the age of globalization // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, Issue 1. – P. 632–638. DOI: 10.5281/zenodo.10144436.
6. Maxmudov Sh.I. Methodological system for implementing innovative technologies in developing information competences of future history teachers // Science and Innovation. – 2024. – Vol. 3, Issue 11. DOI: 10.5281/zenodo.14680600.
7. Yuldashev J.A. Developing the axiological position of future history teachers – as an important direction of history education // Academic Research in Modern Science. – 2024. – Vol. 3, Issue 50. – P. 33–36. DOI: 10.5281/zenodo.14512036.
8. Sharapatova A. Tarix o'qitish metodikasining asosiy prinsiplari // Science and Research. – 2025. – Vol. 2, Issue 2. – P. 1539–1544. DOI: 10.5281/zenodo.14941580.
9. Nishonova D. Maktablarda O'zbekiston tarixini o'qitish jarayonidagi metodlar va metodikalar // Modern Science. – 2025. – Vol. 4, Issue 1. – P. 673–677. DOI: 10.5281/zenodo.14710759.
10. Xujanova L.R. Methodology of development of didactic competence of future history teachers // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. – 2024. – Vol. 4, Issue 05. – P. 206–210. DOI: 10.37547/ajsshr/Volume04Issue05-30.
11. Ziyoyeva M. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-ijodkorlik qobiliyatini raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida rivojlantirishda o'quv jarayonini amalga oshirish shakllari // Nordic International University. – 2025. – Vol. 1, Issue 1. – P. 1–10.
12. Ibragimova M. Tarix fanini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llashning pedagogik asoslari // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – №8. – B. 45–52.
13. Raqamli texnologiyalarning tarix darslarida o'rni // Zenodo. – 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15349443.
14. Current Problems of History Teaching in Uzbekistan and Theories of the Development of the Science // Neliti. – 2024. – P. 1–8.
15. UNESCO. ICT Literacy of School Teachers in Uzbekistan: Survey Results. – Tashkent: UNESCO, 2025. – 42 p.